



BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

Muhiddinova Gulnoza

*Termiz shahar 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Biologiya o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamiyatning barqaror rivojlanishida ayollarning ilm-olishi masalalari, shuningdek, bahtli hayot indeksi, xalqaro miqyosidagi gender masalalari haqida ham ayrim fikr-mulohazalar yuritilgan. Maqolada shuningdek, mamakatimizda hotin-qizlarni ilm-fanga jalb qilishdagi amaliy harakatlar ham aks etgan.*

Kalit so'zlar. *Ayol, rivojlanish, mamakat, taraqqiyot, ilm-fan, e'tibor, g'amxo'rlik, imtiyoz, siyosat, ta'lim.*

WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION

Muhiddinova Gulnoza

13th general secondary school of Termiz city Biology teacher

Abstract. *In this article, some comments are made about the issues of women's education in the sustainable development of the society, as well as about the happy life index and gender issues at the international level. The article also reflects practical efforts to attract women to science in our country.*

Keywords. *Woman, Development, Country, Progress, Science, Attention, Care, Privilege, Politics, Education*

ЖЕНЩИНЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ: НАУКА И КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Мухиддинова Гулноза

13-я общеобразовательная школа города Термеза учитель биологии

Абстрактный. *В данной статье сделаны некоторые комментарии о вопросах женского образования в устойчивом развитии общества, а также об индексе счастливой жизни и гендерных проблемах на международном уровне. В статье также отражены практические усилия по привлечению женщин в науку в нашей стране.*

Ключевые слова. *Женщина, Развитие, Страна, Прогресс, Наука, Внимание, Уход, Привилегия, Политика, Образование*

KIRISH.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishdagi institutsional asoslar tubdan takomillashtirilib, Oliy Majlis Senati huzurida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi joriy qilindi va 2022-yil 1-martdagi Prezident farmoni bilan Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etildi. Senat Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligida dastlab Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi ish boshlagan bo‘lsa, keyinchalik, ya‘ni 1-martdagi Prezident farmoni bilan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi. Mana shu yilning mart oyida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

E‘tiborli tomoni O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining maqomi va vakolatlari qonun darajasida belgilandi. Jumladan, 2019-yil 2-sentyabrdagi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunning 12-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishish, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish, jinsi bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilganligi munosabati bilan hayotda og‘ir vaziyatga tushib qolgan insonlar huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus muassasalarni tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bundan tashqari, jahon tajribasida birinchi marta har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ayollar masalalari bilan alohida, kompleks va manzilli ishlash maqsadida xotin-qizlar faoli lavozimi joriy qilindi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda, ularga jamiyatda o‘z o‘rnini topishda yordam berayotgan hududlardagi «Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi» ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan ayollar uchun chinakam ko‘makchi bo‘lib xizmat qilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash masalasi davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo‘nalishlari qatorida alohida belgilanganligiga bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va sa‘y-harakatlar samarasidan ham guvoh bo‘lib turibmiz.

2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilayotgan yangiliklar fikrimizning to‘liq tasdiqlaydi. Xususan, 6 ta asosiy yo‘nalish va 112 ta banddan iborat bo‘lgan chora-tadbirlar rejasida mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining

barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan, ilgari jahon mamlakatlari amaliyotida kuzatilmagan.

Ilm-fanda yangi ufqlarni kashf etish insonning yoshi, irqi, tili, millati va jinsiga aslo bogʻliq emas. Insoniyat bu haqiqatni ancha oldin anglab yetgan.

Masalan, bundan ikki asr muqaddam Stendal taxallusi bilan mashhur boʻlgan Anri Beyl gender tenglik nafaqat adolat va qadr-qimmat hurmat qilinishi uchun, balki ilm-fan va inson bilimini rivojlantirish uchun ham naqadar zarurligini taʼkidlagan.

Fan va gender tenglik 2030-yilgacha boʻlgan Barqaror rivojlanish kun tartibida bayon etilgan taraqqiyot maqsadlariga erishishning ajralmas unsurlari hisoblanadi. Binobarin, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri – gender tenglikni taʼminlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, davlat boshqaruvi tizimida ayollar ishtirokini taʼminlashdan iborat.

Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida jahon hamjamiyati xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Shunga qaramay, ayollar hali ham ayni jabhada cheklovlarga duch kelmoqda.

YuNESKO Statistika instituti tadqiqotlariga koʻra, qizlar matematika fani boʻyicha oʻgʻil bolalar kabi ijobiy yutuqlarga erishgan boʻlsa-da, bu soha olimlarining faqat 30 foizini ayollar tashkil etar ekan.

Ayollar farzand koʻrgach, ilmiy faoliyatini cheklashi yoki toʻxtatishi ehtimoli koʻproq kuzatiladi. Bunda baʼzi muassasalar uzoq vaqt davomida samarali faoliyat bilan shugʻullanmagani uchun oʻz xodimlarini jarimaga tortib, ularning reytingini pasaytirishi aynan xotin-qizlar manfaatlariga daxl qilishi odatiy holga aylangani chinarlidir.

YuNESKO Bosh direktori Odri Azule taʼkidlaganidek, "Butun tarix davomida va shu kungacha ayollar koʻplab boshqa sohalar kabi ilm-fanda ham unutilganlar. Bu holat ayollar va erkaklar oʻrtasidagi tengsizlikning bardavomligiga olib keladi. YuNESKO butun zanjir boʻylab, yaʼni taʼlimdan ilm-fanda ayollarning kollektiv vakilligigacha ishlash orqali bu muhim muammoni hal qilishga harakat qiladi. Birinchi navbatda, qizlar va ayollarga alohida urgʻu bergan holda barcha imkoniyatlarning asosi sifatida taʼlim hamda bizning taʼlim tizimlarimizdagi tengsizlikka qarshi tezkor kurashga eʼtibor qaratiladi".

YuNESKO maʼlumotlariga koʻra, dunyo boʻyicha axborot va telekommunikatsiya sohasida 3 foiz, tabiiy fanlar va matematika sohasida 5 foiz mutaxassislar ayollardan iborat.

Mamlakatimizda, ayniqsa, soʻnggi yillarda ushbu yoʻnalishda salmoqli islohotlar amalga oshirilib, xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada bugungi kunda ayollar jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tobora yetakchi oʻrinlarni egallab, taʼlim, madaniyat va ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qoʻshmoqda.

Bu haqda soʻz borganda, avvalambor, yaqinda davlatimiz rahbari tasdiqlagan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi aynan "Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlash", deb nomlanganini alohida taʼkidlash lozim. Mazkur maqsad doirasida, jumladan:

- jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zoʻravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash;

- gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;
- xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish kabi bir qator muhim vazifalar belgilangan.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ilm-fan va ta'limni rivojlantirish sohasini, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega insonlar etib tarbiyalash borasida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish va yangi zamonaviy bosqichga olib chiqish kerakligini ta'kidlagani bejiz emas.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi bu borada muhim omiliga aylandi. Xususan, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi.

Shuningdek, "Fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Unda ilmiy ijod va axborot erkinligi, samaradorlik va ijodiy raqobat – fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilandi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan "Olima ayollar grantlari" amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga hozirga qadar xotin-qizlar tomonidan umumiy qiymati 1,7 trln so'm bo'lgan jami 111 ta ilmiy loyiha taqdim etildi. Dastlabki texnik ekspertiza natijalariga ko'ra, 40 ta loyihaga ijobiy xulosa berilgan hamda umumiy hajmi 10 mlrd 450 mln so'mlik 9 ta loyiha moliyalashtirilgan.

Respublika ilmiy va o'quv muassasalarida 700 nafardan ortiq ayol fan doktori hamda 6 nafar akademik ayol faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi ilmiy institutlarda uch mingga yaqin xotin-qiz ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali olib bormoqda.

O'zbek olimlari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarda o'z bilim hamda qobiliyatlarini namoyon etmoqda. Ularning intellektual ishlari xorijiy ilmiy markazlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 29-oktyabrdagi Farmoni bilan 2030-yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ta'kidlash joizki, mazkur Farmon iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirish, ilmiy, intellektual va moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etish bilan ilmiy va innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, kelajakda ilm-fanni uzluksiz isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, o'z-o'zini o'ylaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashishga xizmat qilmoqda.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Yuqoridagilarni inobatga olib biz quyidagi g'oyalarni ilgari suramiz:

1. Mamlakatimizdagi har bir honadonda istiqomat qilayotgan hotin-qizlarni ilm-fanga jalb qilish, buning asnosida ularda mustaqil fikrni shakllantirish;
2. Kasb-hunar ta'limiga qiziqishi mavjud bo'lgan hotin-qizarga yetarli sharoitlar yaratib berish va ularga imtiyozli kreditlar hamda subsidiyalar ajratishni yanada ko'paytish;
3. Ziyoli ayollarga imtiyoz asosida uy-joylar berish tizimini soddalashtirish va jamiyatdagi mavqeyini oshirish;
4. Ilm-fan bilan shug'ullanayotgan hotin-qizlarimizga ayrim soliq imtiyozlarini berish;
5. Oliy ta'limdan keying ta'lim institutlarida ilm olayotgan hotin-qizlar farzandlariga maktabgacha va maktab ta'limida imtiyozlar berish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim masala deb hisoblaymiz.

XULOSA

Muxtasar aytganda, ilmiy faoliyatga xotin-qizlarni ko'proq jalb etish lozim. Tadqiqot faoliyatidagi gender xilma-xillik iste'dodli tadqiqotchilar doirasini kengaytiradi, bu sohada yangi istiqbol va ijodkorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek sog'lom oila muhitini yuzaga chiqishida vatan taraqqiyotining har jabhasida daxldorlikni oshirishda hotin-qizlarning ilm-fanga jalb qilinishi muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Ilm-fanda erishilgan muvaffaqiyatlar insoniyatning umumiy mulki hisoblanadi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ta'kidlaganidek, "Barqaror rivojlanish kun tartibining asosiy vazifalari – sog'liqni saqlashni yaxshilashdan tortib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishgacha bo'lgan ayrim vazifalarni hal etish barchaning iste'dodidan foydalanishga tayanadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marasulov Islombek Ravshanbek o'g'li, Tohirov A'zamjon Ibrohim o'g'li, "The importance of automation of cotton receiving system", eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center, URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.4898919>

2. Toxirov A'zamjon Ibrohim o'g'li, "Quality in modern manufacturing enterprises the role of robototechnics and automated electrical instruments in production", Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center, URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.4968770>

3. Islombek Marasulov Ravshanbek Ogli, & Toxirov Azamjon Ibrohim Ogli. (2021). A role of mechanical engineering in mechatronics. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 824–828. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1690>